



Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi orqali tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari

Tojiboyeva Roziyaxon Mahmudjon qizi –
Farg'ona davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi magistranti
E-mail: jahongirtojiboyev97@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq ijodi vositasida vatanparvarlik va tolerantlik ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodi namunalari ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va milliy qadriyatlarining bolalarda milliy o'zlikni anglash, ona Vatanga muhabbat, bag'rikenglik hamda ijtimoiy hamjihatlik tuyg'ularini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, tarbiyaviy jarayonda innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va integrativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida xalq ijodi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: etnopedagogik yondashuv, folklor didaktikasi, tolerant tafakkur, ma'naviy identifikatsiya, milliy mentalitet, qadriyatlar integratsiyasi, kommunikativ madaniyat, bag'rikenglik kompetensiyasi, tarbiyaviy folklorizm, milliy o'zlik refleksiyasi, ma'naviy-axloqiy transformatsiya.

Идактические возможности воспитания детей дошкольного возраста средствами устного народного творчества

Аннотация. В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются дидактические возможности воспитания детей дошкольного возраста в духе патриотизма и толерантности средствами народного творчества. В исследовании раскрывается роль образцов устного народного творчества сказок, пословиц, загадок, преданий, а также национальных ценностей в формировании у детей осознания национальной идентичности, любви к Родине, чувства толерантности и социальной сплочённости. Также обоснована эффективность использования инновационных педагогических подходов, интерактивных методов и интегративных образовательных технологий в воспитательном процессе. Результаты исследования служат совершенствованию

духовно-нравственного воспитания на основе народного творчества в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: *этнопедагогический подход, дидактика фольклора, толерантное мышление, духовная идентификация, национальный менталитет, интеграция ценностей, коммуникативная культура, компетенция толерантности, воспитательный фольклоризм, рефлексия национального самосознания, духовно-нравственная трансформация.*

Didactic opportunities for educating preschool children through oral folk art

Annotation. *This article provides a scientific and pedagogical analysis of the didactic potential of educating preschool children in the spirit of patriotism and tolerance through folk art. The study highlights the role of examples of oral folk creativity — fairy tales, proverbs, riddles, legends, as well as national values — in developing children's national self-awareness, love for the Motherland, tolerance, and a sense of social solidarity. The article also substantiates the effectiveness of using innovative pedagogical approaches, interactive methods, and integrative educational technologies in the educational process. The results of the study contribute to improving spiritual and moral education based on folk art in the preschool education system.*

Keywords: *ethnopedagogical approach, folklore didactics, tolerant thinking, spiritual identification, national mentality, integration of values, communicative culture, tolerance competence, educational folklorism, reflection of national self-awareness, spiritual and moral transformation.*

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish jarayonida xalq og'zaki ijodi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, axloqiy me'yorlari va estetik qarashlari mujassamdir. Shu bilan birga, amaliyotda mazkur vositalardan foydalanishning samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmayotgani, metodik yondashuvlarning tizimli emasligi muammoni yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Xalq og'zaki ijodi – xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan og'zaki ijod namunalari majmuasidir. Unga ertaklar, afsonalar, maqollar, topishmoqlar, alla va xalq qo'shiqlari kiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu janrlar orqali bolalarga: yaxshilik va yomonlik tushunchasi, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, vatanparvarlik kabi fazilatlar singdiriladi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi orqali tarbiyalashning samarali didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslashni talab etiladi. Bu o'rinda birqancha metodlardan foydalanish sifatli va samarali afzalliklarni ta'minlaydi. Bu usullar: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish metodi, taqqoslash va umumlashtirish pedagogik tajriba (amaliy mashg'ulotlar asosida). Mazkur metodlar orqali xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari hamda uni qo'llash shart-sharoitlari o'rganildi. O'rganish va aniqlash natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi vositasida samarali tarbiyalash quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog'liqligi aniqlandi: pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim mazmunini yosh xususiyatlariga mos tanlash, interfaol metodlardan samarali foydalanish, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish, oila va ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash,

individual yondashuvni qo'llash shuni aytish joizki, ushbu shart-sharoitlar ta'minlanganda bolalarning nutq rivoji, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshadi. Xalq og'zaki ijodi maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Biroq uning samaradorligi bevosita pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni xalq og'zaki ijodi bilan integratsiya qilish bolalarning qiziqishini oshiradi hamda ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali tarbiyaviy ta'sirning uzluksizligini ta'minlash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi asosida tarbiyalash masalasi pedagogika, etnopedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari Sharq mutafakkirlari hamda zamonaviy pedagog olimlar tomonidan alohida e'tirof etilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida bolaning ma'naviy kamolotida xalqona tarbiya, axloqiy qadriyatlar va badiiy tafakkurning o'zni haqida muhim fikrlar ilgari surilgan.

O'zbek pedagog olimlaridan K.Hoshimov, S.Ochilov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov va boshqa tadqiqotchilar xalq pedagogikasining ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi namunalarining bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, estetik tafakkur, axloqiy fazilatlar hamda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi o'zni yoritilgan. Xususan, etnopedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon bolaning milliy identifikatsiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Rossiyalik pedagog va psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev hamda D.B.Elkoninlarning ilmiy qarashlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida badiiy obrazlar, nutqiy faoliyat va ijtimoiy muhitning ta'siri asoslab berilgan. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola rivojlanishida milliy madaniyat va xalq ijodi muhim ijtimoiy-madaniy vosita hisoblanadi. Shu jihatdan ertaklar, maqollar va topishmoqlar bolalarda obrazli tafakkur, mustaqil fikrlash hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham folklor va xalq ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari keng o'rganilgan. Jumladan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniy merosni asrash konsepsiyasida xalq og'zaki ijodi yosh avlodning madaniy xotirasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda esa xalq ijodi bolalarda tolerantlik, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Mavjud ilmiy manbalarda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy jihatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, uning didaktik imkoniyatlarini zamonaviy maktabgacha ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, interfaol metodlar asosida xalq ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlash bugungi kunning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi vositasida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogik, psixologik va etnopedagogik yondashuvlarga tayangan holda ilmiy izlanish olib borildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda integrativ ta'lim tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi hamda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi namunalarining bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish uchun pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat, faoliyat natijalarini tahlil qilish va ilmiy manbalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklar, maqollar, topishmoqlar va rolli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning tarbiyaviy samaradorligi kuzatildi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali bolalarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari hamda ma'naviy-axloqiy sifatlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi vositasida tarbiyalashning pedagogik va didaktik imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarning ma'naviy-axloqiy, nutqiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ertaklar, maqollar, topishmoqlar va rolli xalq o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur va kommunikativ faollikning rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan pedagogik jarayonlar xalq og'zaki ijodi bolaning emotsional olamiga kuchli ta'sir etishini ko'rsatdi. Xalq ijodi namunalaridagi obrazlarning yorqinligi, voqealarning hayotiyli va tarbiyaviy mazmuni bolalarda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, ezgulik, do'stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va bag'rikenglik kabi tushunchalarning badiiy ifodasi bolalarda axloqiy me'yorlarni ongli ravishda qabul qilishga yordam berdi.

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijasida bolalarning dars jarayonidagi faolligi va qiziqishi ortgani kuzatildi. Dramatizatsiya, muammoli vaziyat yaratish, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish bolalarning nafaqat nutqiy kompetensiyasini, balki jamoa bilan ishlash, fikr almashish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini ham rivojlantirdi. Ayniqsa, xalq ertaklarini sahnalashtirish jarayonida bolalarda emotsional ifoda, ijodiy tafakkur va estetik didning shakllanishi sezilarli darajada faollashdi.

Muhokamalar natijasida xalq og'zaki ijodining didaktik imkoniyatlari faqat tarbiyaviy jihat bilangina cheklanib qolmasligi aniqlandi. U bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish, xotira va diqqatni mustahkamlash hamda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda ham samarali vosita ekanligi kuzatildi. Topishmoqlar va tez aytishlardan foydalanish bolalarda tafakkur tezligi, fonetik to'g'ri talaffuz va nutq madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat va milliy o'zlikni anglash hissining shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, turli xalqlar folklori elementlaridan foydalanish bolalarda tolerant tafakkur va boshqa madaniyatlarga nisbatan hurmat hissini rivojlantirish imkonini yaratadi. Bu esa zamonaviy ta'limning insonparvarlik va madaniyatlararo integratsiya tamoyillariga mos keladi. Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish ko'pincha an'anaviy usullar bilan cheklanib qolayotgani, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi kuzatildi. Bu esa tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish va xalq ijodi asosidagi innovatsion didaktik materiallarni yaratish zaruratini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodining maktabgacha ta'lim tizimidagi didaktik salohiyati yuqori ekanligini tasdiqladi. Uni interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va kommunikativ rivojlanishini samarali tashkil etish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi vositasida tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining dolzarb pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari

shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarning ma'naviy-axloqiy, intellektual, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va milliy o'yinlar orqali bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, bag'rikenglik, kommunikativ madaniyat hamda ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalari samarali shakllanadi.

Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilganda yanada yuqori samaradorlikka erishilishi aniqlandi. Ayniqsa, dramatizatsiya, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va integrativ mashg'ulotlar bolalarning emotsional-intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa xalq ijodining nafaqat an'anaviy tarbiya vositasi, balki zamonaviy didaktik resurs sifatida ham katta pedagogik salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat bolalarda milliy o'zlikni anglash bilan bir qatorda tolerant tafakkur va madaniyatlararo hurmatni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bu esa globallashtirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasini takomillashtirish, pedagoglarning etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy didaktik materiallar yaratish zarurati mavjud. Kelgusida ushbu yo'nalishda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifati hamda tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiluvchi, boy pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lgan muhim ma'naviy-didaktik manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. Qur'onov M. Milliy tarbiya va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
5. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Safarova R., Xasanboyeva O. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2017.
7. Hasanboeva O.U. Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Jumayev A. Xalq pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.